

**H.M.ABDULLAYEV NOMIDAGI GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.24/30.10.2020.GM.125.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

“GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA INSTITUTI” DM

AMIROV ELYOR MANSURIDDIN O‘G‘LI

**QIZILOLMASOY MA‘DANLI MAYDONI SHIMOLIY-G‘ARBIY
UCHASTKASINING METASOMATITLARI: MODDIY TARKIBI, HOSIL
BO‘LISH XUSUSIYATLARI VA MA‘DANDORLIGI**

04.00.03 – Geotektonika va geodinamika. Petrologiya va litologiya

**GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

**Geologiya-mineralogiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по геолого-минералогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on geological-mineralogical sciences**

Amirov Elyor Mansuriddin o‘g‘li

Qizilolmasoy ma‘danli maydoni Shimoliy-G‘arbiy uchastkasining
metosomatitlari: moddiy tarkibi, hosil bo‘lish xususiyatlari va
ma‘dandorligi..... 3

Амиров Элёр Мансуриддин угли

Метосоматиты Северо-Западного участка Кызылмасайского рудного
поля: вещественный состав, особенности формирования и
минерализация..... 21

Amirov Elyor Mansuriddin ugli

Metosomatites of the North-Western section of the Kyzylmasoy ore field:
material composition, formation features and
mineralization..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**H.M.ABDULLAYEV NOMIDAGI GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.24/30.10.2020.GM.125.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

“GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA INSTITUTI” DM

AMIROV ELYOR MANSURIDDIN O‘G‘LI

**QIZILOLMASOY MA‘DANLI MAYDONI SHIMOLIY-G‘ARBIY
UCHASTKASINING METASOMATITLARI: MODDIY TARKIBI, HOSIL
BO‘LISH XUSUSIYATLARI VA MA‘DANDORLIGI**

04.00.03 – Geotektonika va geodinamika. Petrologiya va litologiya

**GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/GM195 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti Davlat muassasasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ingeo.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Karabayev Mamatxan Sadirovich**
geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Mamarozikov Usmonjon Dovronovich**
geologiya-mineralogiya fanlari doktori

Karimova Feruza Baxtiyarovna
geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: **Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti huzuridagi DSc.24/30.10.2020.GM.125.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "12" dekabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 10064, Toshkent shahri, Olimlar ko'chasi, 64g. Tel.: (99871) 209-11-32 (5505), E-XAT: ingeo@exat.uz; E-mail: ingeo@ingeo.uz).

Dissertatsiya bilan H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (25-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 10064, Toshkent shahri, Olimlar ko'chasi, 64g. Tel.: (99871) 209-11-32 (5505).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "24" noyabrda tarqatildi.

(2025-yil "24" noyabrdagi 25-raqamli reestr bayonnomasi.)



X.D.Ishbayev

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash raisi, g.-m.f.d., professor

E.M.Amirov

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash ilmiy kotibi, g.-m.f.f.d. (PhD)

P.S.Sultonov

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash qoshidagi seminar raisi, g.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida soʻngi yillarda oʻzlashtirilayotgan konlar atroflaridagi istiqbolli boʻlgan yangi geologik vaziyatlarni aniqlash, maʼdan hosil boʻlishining zamonaviy ilmiy asoslarini ishlab chiqish maqsadida maʼdanli maydonlarda tarqalgan togʻ jinslari maʼdan oldi oʻzgarishlarini, ularning moddiy tarkibini oʻrganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda maʼdan-metasomatik jinslarning mineralogik-petrografik tarkibi, geokimyoviy xususiyatlarini aniqlash borasida olib borilgan tadqiqotlar natijalari ularning hosil boʻlish sharoitlari va qonuniyatlarini, yirik konlar shakllanishidagi ahamiyati kabi bir qator muammolarni hal qilishda muhim axborot manbasi boʻlib xizmat qiladi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda endogen maʼdanlashuvlarning turli tarkibli metasomatik hosilalar bilan genetik bogʻliqligi hamda ushbu jinslarning moddiy tarkibini aniqlash boʻyicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, metasomatik hosilalarning petrografik, mineralogik-geokimyoviy xususiyatlarini, qimmatbaho metallar maʼdanlashuvi bilan munosabatlari va konlar hosil boʻlishidagi ahamiyati, maʼdanli maydonlar yonlarida yangi istiqbolli vaziyatlarni aniqlashda ilmiy asoslangan petrologik-geokimyoviy mezonlar ishlab chiqishga alohida eʼtibor berilmoqda.

Respublikamizning Olmaliq-Angren mintaqasidagi Qizilolmasoy maʼdanli maydonida qimmatbaho metallarni qidirishga qaratilgan muayyan tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, hozirgi kunda istiqbolli boʻlgan Tuyachavul, Shimoliy-Gʻarbiy, Orayliq, Qirrali uchastkalarida oltin-kumush minerallasuviga sanoatbop maʼdan tanalari aniqlandi. Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasida “Sohani yanada rivojlantirish, takomillashtirish, jadallashtirish”¹ boʻyicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada Shimoliy-Gʻarbiy uchastkasidagi maʼdan oldi oʻzgargan metasomatik hosilalarni tadqiq etish, ularni chuqur gorizontlarda oltin maʼdanlashuvini izlash va baholashda keng qoʻllashga yoʻnaltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-iyuldagi PQ-4401-sonli “Yer qaʼrini geologik jihatdan oʻrganishni yanada takomillashtirish va 2020-2021 – yillarda mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarori, 2023-yil 27-iyuldagi PF-116-sonli “Maʼmuriy islohotlar doirasida togʻ-kon sanoati va geologiya sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-60 – sonli qarorlari, hamda sohaga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF – 60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/5841077#5843178> .

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishning “Yer to‘g‘risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyolarni qayta ishlash)” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘rganilgan maydon Chotqol tizmasining (O‘rta Tyan-Shan) janubiy-g‘arbiy yonbag‘rlarida joylashgan bo‘lib, geotektonik jihatdan yuqori paleozoy Beltog‘-Qurama vulqon-plutonik kamariga kiradi. Hududning geologiyasi ellik yildan ortiq vaqt davomida o‘rganilgan va bu to‘plangan geologik, geofizik, strukturaviy-tektonik, petrografik, mineralogik va geokimyoviy materiallar M.O.Suleymanov, O.V.Beloplotova, R.P.Badalov, M.D.Uvadyev, G.Sh.Rashidova, Y.L.Gertman, D.V.Ermekbayeva, V.R.Ashirmatova, A.S.Badalov, V.A.Kovalenker, A.A.Kremenetskiy, T.N.Dolimov, R.I.Koneyev, R.Axundjanov, V.D.Soy, U.D.Mamarozikov, R.A.Xalmatov, A.Z.Umarov, B.F.Islamov, F.B.Karimova, S.S.Sayitov va boshqalarning monografiyalari, maqola-tezislari, ilmiy-mavzuviy ishlari va dissertatsiyalarida o‘z aksini topgan.

Ularning ishlari natijasida hududning geologik-strukturaviy tuzilishi, oltin va boshqa foydali qazilmalarni hosil bo‘lish va joylashuv qonuniyatlari, ma‘dan nazorat qiluvchi omillar aniqlandi. Shu vaqtgacha Qizilolmasoy ma‘danli maydoni hududida turli mavzudagi izlanishlar o‘tkazilganligiga qaramasdan Shimoliy-G‘arbiy uchastkasida tarqalgan magmatik hosilalar va ular bilan bog‘liq bo‘lgan metasomatitlarning moddiy tarkibi, hosil bo‘lish sharoitlari, tarqalishi va ularning ma‘danlashuvga aloqasi bo‘yicha bir qator muammolar o‘z yechimini kutmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti hamda “O‘zbek geologiya qidiruv” AJning ilmiy tadqiqot ishlari rejasining: “Qizilolmasoy ma‘danli maydonidagi Shimoliy-G‘arbiy uchastkasida Asosiy ma‘danli zonasida oltin minerallashuvini izlash va dastlabki baholash” (2015-2023) va “Qizilolmasoy ma‘danli maydonining Shimoliy-G‘arbiy uchastkasidagi Asosiy ma‘danli zonasida kvars-tomirli zonalaridagi va kvars-tomirli tanalarida kvarsli flyus hom ashyosini izlash va dastlabki baholash” (2021-2023) mavzularidagi geologik qidiruv ishlari loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Qizilolmasoy ma‘danli maydoni Shimoliy-G‘arbiy uchastkasidagi metasomatik o‘zgargan jinslarning petrografik xususiyatlari, moddiy tarkibi, tarqalishi va ma‘danlashuv bilan bog‘liqligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Qizilolmasoy ma‘danli maydoni Shimoliy-G‘arbiy uchastkasidagi magmatik tog‘ jinslari bo‘yicha rivojlangan metasomatik o‘zgarishlarni batafsil petrografik tavsiflash;

metasomatitlarning oltin minerallashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan turlarini ajratish; ma‘danlar va ma‘dan oldi metasomatitlarning mineralogik tarkibi hamda asosiy amaliy ahamiyat kasb etgan turlarining tarqalish xususiyatlarini aniqlash;

ma‘danli va oksidlanish zonasi minerallarining kimyoviy tarkibi, uchrash shakllari va tipomorf xususiyatlarini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qizilolmasoy ma'danli maydoni Shimoliy-G'arbiy uchastkasi olingan.

Tadqiqotning predmeti Qizilolmasoy ma'danli maydoni Shimoliy-G'arbiy uchastkasidagi magmatik tog' jinslari va ular bilan bog'liq metasomatitlar, ularning petrografik-mineralogik va geokimyoviy xususiyatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda dala sharoitida tog' lahlari va burg'i qudug'i kernlari bo'yicha petrografik-mineralogik kesmalar o'tilgan, batafsil geologik kuzatuv nuqtalari tavsiflangan, tog' jinslaridan olingan namunalar mineral tarkibi, tekstura-strukturaviy xususiyatlari shaffof va silliqlangan shliflarda "Nikon ECLIPSE LV100N POL" elektron mikroskoplarida, zamonaviy – JXA-8800R "Superprobe, Jeol" mikrozonida, kimyoviy elementlar va oksidlarning miqdori mass-spektrometr Elan-6600 Perkin Elmer, ICP-MS, silikatli, to'liq miqdorli spektral tahlillar yordamida tog' jinslari tarkibidagi petrogen va ma'dan hosil qiluvchi elementlar miqdorlari, metasomatitlarning tarkibi to'liq aniqlangan va natijalar tahlil qilingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qizilolmasoy ma'danli maydoni Shimoliy-G'arbiy uchastkasidagi magmatik tog' jinslari bo'yicha rivojlangan muskovit-kvars-dala shpatili, propillitli, karbonat-xlorit-slyudali metasomatik o'zgarishlar aniqlangan;

ilk bor maydondagi turli tarkibli metasomatik hosilalarning tarkibiy xususiyatlari aniqlangan va ular bilan oltin ma'danlashuvining o'zaro genetik munosabatlari ochib berilgan;

ma'dan-metasomatik minerallarining kimyoviy tarkibi, uchrash shakllari, tipomorf belgilari ajratilgan hamda oltin va hamroh elementlarning ma'danlarda tarqalish xususiyatlari aniqlangan;

metasomatitlar va ma'danlarning geokimyoviy xususiyatlari aniqlangan hamda olingan barcha ma'lumotlar asosida ma'danlashuvning qidiruv-bashoratlash majmuasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Shimoliy-G'arbiy uchastkasidagi turli magmatik tog' jinslari bo'yicha rivojlangan metasomatik o'zgarishlar petrografik tavsiflanagan;

tadqiqot olib borilayotgan hududda oltin ma'danlashuvni bashorat qilishda metasomatik o'zgarishlardan tog' jinslarining xloritlashish, seritsitlashish barqaror qidiruv mezonlari bo'lib xizmat qilishi aniqlangan;

Shimoliy-G'arbiy uchastkasi magmatik tog' jinslari bo'yicha rivojlangan metasomatitlarning geokimyoviy ixtisoslashuvi ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining sifatligini va ishonchligini ta'minlash maqsadida an'anaviy usullar bilan birga zamonaviy petrografik, mineralogik va geokimyoviy usullar, hamda qurilmalar qo'llanilgan. Jumladan - jins hosil qiluvchi, ma'dan minerallarining uchrash shakllari va moddiy tarkiblari "Nikon ECLIPSE LV100N POL" mikroskopida (Nikon, Yaponiya) hamda "JXA-8800R Superprobe" elektron-mikroanalizatorida (Jeol, Yaponiya)– aniqlangan. Olingan natijalar quyidagi majmuaviy dala va laboratoriya tadqiqotlari materiallariga asoslangan: petrografik-mineralogik kesmalar (1800 m) tuzilgan va 50 ta batafsil geologik kuzatuv nuqtalari tavsiflangan, namunalar bo'yicha 10 ta

kimyoviy (silikat) va 112 ta mass-spektrometrik, 76 ta to‘liq miqdorli spektral, 39 ta atom-absorbsion tahlillar bajarilgan, ma‘danli minerallarning uchrash shakllari va moddiy tarkiblarini aniqlash uchun mikroanalizatorida 100 ga yaqin elektron-mikrozond tahlillari o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Qizilolmasoy ma‘danli maydoni Shimoliy-G‘arbiy uchastkasi metasomatik o‘zgargan tog‘ jinslari turlari bo‘yicha tarkibiy tavsiflanganligi va ulardagi jins hosil qiluvchi, ikkilamchi minerallar hamda tadqiqot hududida oltin ma‘danlashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan ikkilamchi o‘zgarishlar aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Qizilolmasoy ma‘danli maydoni Shimoliy-G‘arbiy uchastkasidagi metasomatik o‘zgargan jinslar rivojlangan qismlarida ularga a‘loqador ma‘danlashuvni aniqlashga, hamda bashorat resurslarini kengaytirishga yo‘naltirilgan geologik-qidiruv ishlarini olib borishda ilmiy asos sifatida qo‘llaniladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qizilolmasoy ma‘danli maydoni Shimoliy-G‘arbiy uchastkasidagi metasomatik o‘zgargan jinslarning petrografik, mineralogik-geokimyoviy xususiyatlarini tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Shimoliy-G‘arbiy uchastkasidagi magmatik hosilalar bo‘yicha rivojlangan metasomatitlarning petrografik xususiyatlari “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ Toshkent MGQE amaliyotiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 16-oktabrdagi 08-3829-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, magmatik tog‘ jinslari bo‘yicha rivojlangan metasomatitlarning oltin minerallashuvi bilan bog‘liq turlarini aniqlashga imkon bergan.

Metasomatik hosilalarning moddiy tarkibi va asosiy minerallarining tipomorf xususiyatlari hamda uchrash shakllari “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ Toshkent MGQE ning amaliyotiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 16-oktabrdagi 08-3829-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, metasomatik hosilalarda minerallar va elementlarning tarqalish miqdorini tavsiflash, maydondagi ma‘danlashuv turlarini aniqlash imkonini bergan.

Metasomatitlar va ma‘danlarning mineralogik-geokimyoviy xususiyatlari “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ Toshkent MGQE amaliyotiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 16-oktabrdagi 08-3829-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, oltin ma‘danlashuvini qidiruv-bashoratlash majmuasi va maydonning chuqur gorizontlarida kelgusidagi ishlarni davom ettirishga tavsiyalar ishlab chiqish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan, ulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan 3-tasi respublikada, 1-tasi

xorijda, konferentsiya materiallari to'plamlarida 5 ta, jumladan 2 tasi xalqaro konferensiyalarda.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilayotgan tadqiqotning dolzarbligi va unga bo'lgan zaruriyat, maqsad va vazifalari asoslangan, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, olingan natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga tadbiiq etilganligi va qo'llanilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Muammoning o'rganilganlik darajasi va tadqiqotlarning ilmiy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Qizilolmasoy ma'danli maydonining o'rganilganlik darajasining qisqacha sharhi, hamda magmatik, metasomatik hosilalarni tadqiq etishning petrologik-geokimyoviy uslublari bayon qilingan. Mazkur hududda endogen ma'danlashuvning magmatik jinslar bilan, xususan ular bo'yicha rivojlangan metasomatitlar bilan genetik aloqasini aniqlash geologik qidiruv ishlarini samarali tashkil etish uchun ilmiy asos sifatida katta ilmiy va amaliy qiziqish uyg'otayotganligi ta'kidlangan.

Angren tog'-kon hududida kon sanoati VII-XII asrlarda oltin va kumush-polimetall ma'danlarining o'zlashtirilishi munosabati bilan konchilik hududi sifatida rivojlana boshlagan. Ohangaron daryosining o'ng qirg'og'i (Qizilolma koni) va chap qirg'og'idan (Ko'chbuloq, Lashkerek konlari) qadimiy konlar qoldiqlari topilgan.

Qizilolma ma'danli maydonida dastlabki rejali tadqiqotlar (M.O.Suleymanov, O.V.Beloplotova, A.T.Demin - 1968 y., N.F.Rafikov, N.A.Yeroxin, P.F.Kurbalov - 1971) 1:25000, keyinchalik 1:10000, alohida uchastkalarda esa 1:2000 miqyoslardagi geologik tasvirlash ishlari bilan boshlangan.

Maydonda turli vaqtlarda o'tkazilgan geologik, strukturaviy-tektonik, petrografik, mineralogik va geokimyoviy tadqiqotlar materiallari M.O.Sulaymonov, N.F.Rafikov, A.E.Antonov, R.Axunjanov, Y.M.Rafikov, R.P.Badalov, F.I.Kremov, A.I.Kremov, V.A.Arapov, R.I.Koneyev, M.M.Pirnazarov, E.E.Igamberdiyev, A.Z.Umarov, B.F.Islamov, R.A.Xalmatov, F.B.Karimova, A.Y.Panchenko va boshqalarning monografiyalari, maqolalari, ilmiy-tematik ishlanmalari va dissertatsiyalarida o'z aksini topgan. Maydonning mineralogiyasi va alohida minerallar tipomorfizmi masalalari M.D.Uvadev, G.Sh.Rashidova, Y.D.Gertman, D.U.Ermekbayeva, V.R.Ashirmatova, A.S.Badalov, V.A.Kovalenker, A.A.Kremetskiy, R.I.Koneyev, V.D.Soy, R.A.Xalmatov, A.Z.Umarov, S.S.Sayitov va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Shimoliy-G'arbiy uchastkasining o'rganilishi Qizilolma konining ochilishi va uning g'arbiy qismida olib borilgan qidiruv ishlari bilan bog'liq. Dastlab uchastkaning janubiy-sharqiy tomoni Qizilolma konining Markaziy uchastkasi hududiga kirgan. 1968-yildan boshlab esa u alohida uchastkaga aylangan. Shu

vaqtdan boshlab uning tizimli o'rganilishi boshlangan (M.O.Suleymanov va b., 1971).

Hozirgi vaqtga qadar Qizilolmasoy ma'danli maydonining turli uchastkalarida metasomatitlarni tadqiq etish bo'yicha turli vaqtlarda ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va ularning moddiy tarkibi, hosil bo'lish xususiyatlari hamda ma'danlashuv bilan aloqasi bo'yicha bir qancha ilmiy natijalar olingan. Shundan kelib chiqib ma'danli maydonda nisbatan endi tadqiq etilayotgan uchastkalarda ham bu kabi ishlarni o'tkazish, metasomatik tog' jinslarining ma'dandorlikga aloqasi masalalariga aniqlik kiritish, ularning moddiy tarkibni zamonaviy yuqori aniqlikka ega bo'lgan tadqiqot usullari yordamida o'rganish alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi – **“Qizilolmasoy ma'danli maydoni shimoliy-g'arbiy uchastkasining geologik tuzilishi va ma'dandorligining qisqacha tavsifi”** da tadqiqot maydonining stratigrafik hosilalari, tektonik qurilmalari, magmatizmi va ma'dandorligiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Qizilolmasoy ma'danli maydoni Chotqol tizmasining (O'rta Tyan-Shan) janubiy-g'arbiy yonbag'rlarida joylashgan bo'lib, geotektonik jihatdan yuqori paleozoy Beltog'-Qurama vulqon-plutonik kamariga kiradi.

Hududning stratigrafik hosilalari tavsifiga ko'ra maydondagi eng qari hosilalar ordovik-silur sistemasi (O-S) tog' jinslari fundament ost qismida va unga parallel joylashgan bo'lib, asosiy minerallashgan jinslari slaneslardir. Ushbu jinslar paleozoy yotqiziqlarining quyi qavatini tashkil etadi. Quyi devon (D₁) yotqiziqlari ordovik-silur yoshidagi metamorfik slaneslar va kaledon intruziyalarining yuzasida nomuvofiq yotadi.

O'rta karbon sistemasi (C₂) birinchi marta 1939-yilda E.A.Kochnev Aqchasoy bo'ylab tarqalgan effuziv-cho'kindi jinslarning katta qismini mustaqil aqcha svitasi (C₂ak) sifatida ajratilgan. Ular 4 ta kichik svita yotqiziqlari sifatida ajratiladi. Perm sistemasi - (P) yotqiziqlari andezit-datsitli cho'kindi-vulkanogen formatsiyani tashkil etadi. Trias sistemasi Qizilnura svitasini (T₁kz?) cho'kindi-effuziv kvarsli porfirilar (riolit, traxiriolit) larning tuflari tashkil etadi.

Kaynozoy eratemasi. Paleogen sistemasi yotqiziqlari ma'danli maydonda yaruslarga ajratilmagan. Yotqiziqlar ikki fatsiyani nomoyon qiladi: quyi bo'limdagi yotqiziqlar – dengiz cho'kindilari (turkiston qatlamlari); yuqori bo'limdagilar esa – qizil rangli kontinental molassa yotqiziqlari. To'rtlamchi sistemasi (Q) yotqiziqlari Ohangaron daryosi va Dukent, Qorabog', Go'shsoy soylari vodiylarida tarqalgan.

Maydon tektonik jihatdan subkenglikdagi Shavoz-Dukent vulqon-tektonik grabeni bilan Dukent-Go'shsoy mintaqaviy yoriqlari submeridional zonasi kesishmasi bilan chegaralangan qismida joylashgan. Ma'danli maydonning tuzilishida ikkita strukturaviy qavat ajratiladi: quyi qavat granitoid fundamentidan va ko'p sonli va tarkibi bo'yicha turli xil bo'lgan o'zaro kesishuvchi daykalar, shtoklar, Boboytovdor ekstruziyasidan tashkil topgan. Bu hosilalarda metamorfik slaneslarning ksenolitlari keng ko'lamda tarqalgan.

Ma'danli maydon hududi magmatik tog' jinslari tarqalishiga qarab ikki strukturaviy qavatdan tashkil topgan bo'lib, pastki struktura qavati granitoidli fundament va turli xil tarkibdagi ko'p sonli daykalar, shtoklar va ma'dan

tomirlaridan tashkil topgan. Yuqori qavat andezit-datsit formatsiyali vulqon jinslari bilan qoplagan. Ularning qalinligi 600-650 m gacha yetadi.

Hududagi yirik oltin konlarining shakllanishi 317-244 mln yil oralig'iga to'g'ri keladi. Bu Chotqol-Qurama mintaqasining subduksiya (C_{2-3}) va keyingi (C_3-P_1) kontinental faol chetlarga, shuningdek plitaichi (P_2-T_1) magmatizm bosqichlariga to'g'ri keladi. Oltin-ma'danlashuvi polixronli, ko'p bosqichli va poligen turga kiradi. Tog' jinslari va ma'danlarning mutlaq yosh ma'lumotlariga ko'ra u subduksiya magmatizmi bilan bog'liq (Seltman, Koneyev va b., 2014).

Qizilolmasoy ma'danli maydoni shimoliy-sharqiy yo'nalgan Angren oltindor zonasida joylashgan bo'lib, bu yerda juda ahamiyatli foydali qazilma uchastkalari mavjud. Ulardan asosiylari quyidagilar: Samarchuk, Mejdureche, Chumauk, Shimoliy-G'arbiy, Tuyachavul, Oraylik, Qirrali.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida **“Shimoliy-G'arbiy uchastkasi magmatik tog' jinslari va ular bo'yicha rivojlangan metasomatitlarning petrografik-petrokimyoviy tavsifi”** ga oid masalalarni tavsiflashga bag'ishlangan bo'lib, metasomatik o'zgargarishga uchragan birlamchi magmatik tog' jinslarining petrokimyoviy xususiyatlari hamda geologik-petrografik tavsifi va magmatik tog' jinslari bo'yicha rivojlangan metasomatitlar turlari ochib berilgan.

Maydondagi metasomatik o'zgargan magmatik jinslardan traxiandezit, datsit, traxiriolit, riolit (liparit), granit, turli tarkibli effuzivlar keng tarqalgan.

Shimoliy-G'arbiy uchastkasida tarqalgan magmatik tog' jinslari SiO_2 miqdoriga ko'ra o'rta va nordon guruhlariga kiradi. O'rta guruh jinslarda ishqorlilik miqdori 7,09-7,70%, nordon jinslarda 6,01-8,63% gacha faqatgina kuchli metasomatik o'zgargan effuziv jinslarda 4,54% atrofida. Shu bilan birgalikda ishqorlilik qatori bo'yicha traxiandezitlar, datsitlar, granitlar, traxiriolitlar kaliy-natriyli qatorga, riolitlar va kuchli metasomatik o'zgargan effuziv jinslar kaliyli qatorga mansub (1-jadval). Tog' jinslarida temirilik ko'effitsienti 0,48-1,00 gacha, glinozyomlik miqdori bo'yicha faqat riolitlar past glinozyomli, qolgan jinslar yuqori glinozyomli guruhga mansub.

Shimoliy-G'arbiy uchastkasida tarqalgan barcha tog' jinslari u yoki bu darajada ikkilamchi o'zgarishga uchragan. O'rganilgan tog' jinslaridan traxiriolitlarda, sienito-diorit, diorit, felzit kabi tog' jinslari, shu bilan birga diabaz va granit-aplit daykalarida ikkilamchi metasomatik o'zgarishlar kamroq kuzatiladi.

Maydonda metasomatik o'zgargan tog' jinslari traxiandezitlar, datsitlar, traxiriolitlar, riolitlar, granitlar va turli tarkibli effuzivlar hisoblanadi. Bu tog' jinslari bo'yicha faol seritsitlashuv, xloritlashuv, kaolinlashuv, karbonatlashuv va boshqa o'zgarishlar rivojlangan.

Traxiandezitlar o'rganilayotgan maydonda eng keng tarqalgan tog' jinslaridan hisoblanadi. Bu jinslar makroskopik jihatdan kulrang, och kulrang, mayda kristalli bo'lib, tarkibida dala shpatlarining kamdan-kam uchraydigan porfirit qo'shimchalari kuzatiladi. Uning o'lchamlari 1-2 dan 5 mm gacha. Porfirit qo'shimchalarining miqdori 10-15% gacha bo'lib, tog' jinsida sulfid qo'shimchalari va karbonat tomirlari qayd etilgan. Ushbu jinslarda plagioklaz bo'yicha seritsitlashish, xloritlashish, kamroq karbonatlashish rivojlangan.

Shimoliy-G‘arbiy uchastkasidagi metasomatik o‘zgarishga uchragan tog‘ jinslarining petrokimyoviy xususiyatlari

Namuna raqami	SiO ₂ miqdori (%)	Ishqorlilik (Na ₂ O+K ₂ O)	Na ₂ O /K ₂ O	Ishqorlilik qatori	Temirlilik koefitsienti, Kj	Glioziomlik koefitsienti, al	Glioziomlik sinfi
C ₃ -87	57,92	7,7	3,34	Kaliy-natriyli	0,62	1,39	Yuqori glioziomli
C ₃ -72	63,75	7,22	1,64		0,74	2,44	
C ₃ -79	62,2	7,35	1,49		0,81	2,79	
C ₃ -82	63,36	7,09	1,8		0,79	2,64	
C ₃ -50	68,42	6,81	0,87		0,48	2,35	
C ₃ -51	68,8	8,63	1,4		0,8	5,03	
C ₃ -85	69,19	6,74	1,04		0,88	3,51	
C ₃ -91	68,02	4,54	0,13	Kaliyli	0,87	3,32	Past glioziomli
C ₃ -58	74,64	6,01	0,53		1	-	
C ₃ -89	75,41	7,24	0,83		0,99	-	

Izoh: Shg⁻-87 - traxiandezit; Shg⁻-72,79,82 - datsit; Shg⁻-51 - traxiriolit; Shg⁻-58, 89 - riolit (liparit); Shg⁻-50, 85 - granit; Shg⁻-91 – effuzivlar bo‘yicha rivojlangan metasomatitlar $K_j = (FeO+Fe_2O_3)/(FeO+Fe_2O_3+MgO)$, $al = Al_2O_3/(FeO+Fe_2O_3+MgO)$

Xloritlashish gil zarralari va ma‘danli minerallashuv qismlarida kuzatiladi. Kaliyli dala shpati donalari kuchli pelitlashgan.

Datsitlar - tatqiqot maydonida keng tarqalgan jinslardan hisoblanadi. Teksturasi yaxlit, strukturasi o‘rta va yirik donali. Ajralmalarining o‘lchami 0, n dan 3,0-3,5 mm gacha yetadi. Mikroskopik jihatdan tog‘ jinslari kvars, dala shpati (plagioklaz, kaliyli dala shpati) va ikkilamchi metasomatik minerallardan iborat. Tog‘ jinsi maydonda asosan tuf holatida ham kuzatiladi. Uning darzliklari bo‘ylab karbonat tomirlari rivojlangan. Plagioklazlar kuchli seritsitlashgan, karbonatlashgan va xloritlashgan. Kaliyli dala shpati jigarrang rangda va pelitlashgan. Xlorit tarkibida gil minerallari va reliktili biotit qo‘shimtalari mavjud, bundan tashqari kvarslashish, karbonatlashish, xloritlashish va temir gidroksidlarining tomirlari bor.

Traxiriolit. Bu turdagi tog‘ jinslari o‘rganilayotgan maydonda juda kam miqdorda uchraydi. Tog‘ jinslari och sarg‘ish-pushti rangga ega. Mayda-o‘rta donali, ajralmalar o‘lchami 0, n-1,2 mm. Mayda (0,0n-0, n mm) donali bo‘laklarda yirikroq plagioklaz, kaliyli dala shpati va kvarslashish zonalari mavjud. Plagioklaz oddiy qo‘shaloq va polisintetik bo‘lib, kuchsiz seritsitlashgan va xloritlashgan. Kaliyli dala shpati jigarrang bo‘lib, pelitlashgan.

Riolitlar (liparit) ham o‘rganilayotgan hududda nisbatdan kam tarqalgan. Ular porfir strukturali tog‘ jinslari bo‘lib yaxlit, mayda donali (0,01-0,03 mm). Asosiy massasida dala shpati-kvars minerallari kuzatiladi. Riolitlar tarkibida miqdori bo‘yicha plagioklazdan keyin seritsitlashish, karbonatlashish va xloritlashish uyumlari turadi.

Granit va granodioritlar. Granitlar maydonda eng ko‘p tarqalgan tog‘ jinslari hisoblanadi. Ular butun maydon bo‘yicha ochilmalar hosil qilgan bo‘lib, tarkibida ko‘p miqdorda diorit tarkibli ksenolit bo‘laklari ham uchraydi. Ularning o‘lchami 2-3 sm dan 15 sm gacha. Yaxlit, notekis donali, yirik va o‘rta kristalli jinslar.

Kvarslashuv zonalari. Maydonda kvarslashuv zonalari ko‘p miqdorda tarqalgan bo‘lib, ular asosan ikkilamchi o‘zgarishlarda keng uchraydi. Rangi oq, och sariqdan qo‘ng‘irgacha. Ularning yo‘nalish azimuti 10-30° shimoliy-sharqqa

yoʻnalgan. Kvars tomirlarining qalinligi 0,51-10,2 metr oraligʻida. Ular bir-biriga parallel joylashgan boʻlib, umumiy qalinligi 150-200 metrli uzunligi esa 2,5 km gacha boʻlgan zonalarini tashkil qiladi. Asosiy maʼdan tanalari ham shu zonada joylashgan.

Maydondagi eng qadimgi metasomatitlar granitoid massivi hosil boʻlgandan keyingi gidrotermal-pnevmatolit jarayonlari bilan bogʻliq. Ular notoʻgʻri linza va tomirga oʻxshash shaklga ega, yirik donali, zonal boʻlmagan tuzilishga ega va foydali komponentlarning namoyon boʻlishini oʻz ichiga oluvchi muskovit-kvars-dala shpatili hosilalarning shakllanishi bilan ifodalanadi.

Mineral hosil boʻlishining keyingi bosqichlarida vulqon faolligining namoyon boʻlishi bilan keng maydonlarda kuzatiluvchi mintaqaviy maʼdan oldi propilitlar va darzliklar bilan nazorat qilinadigan gidrotermal maʼdan hosil boʻlish jarayonlari bilan bogʻliq boʻlgan karbonat-xlorit-gidroslyudali, kvars-albitli va solfator argilizitli (ikkilamchi kvarsitlar) metasomatitlar taalluqli.

Maʼdanoldi metasomatitlariga taalluqli boʻlgan oʻrta va yuqori haroratda hosil boʻladigan kvars-dala shpatili metasomatitlar fatsiyasi maydonda eng keng tarqalgan metasomatitlardan hisoblanadi. Bu turdagi metasomatitlar nordon (granodioritlar, granitlar, granit porfirilar) va oʻrta (sienito-dioritli porfirilar) magmatik jinslar hisobiga hosil boʻlgan.

Mineral hosil boʻlishining keyingi bosqichlarida vulqon faolligining namoyon boʻlishi bilan keng maydonlarda *mintaqaviy maʼdan oldi* propilitlar shakllanishi va nisbatan kichik, faol burdalangan maydonlarda solfator-fumarol jarayonlari kechgan.

Mintaqaviy metasomatoz mahsulotlari orasida hosil boʻlish sharoiti boʻyicha chuqurlik va haroratning turli intervallariga mos keladigan *propilitlarning* bir necha xil fatsiyalari ajralib turadi.

Ep+Xl+Ab (\pm Kar-Ser-Mus-Kv) assotsiatsiyasi bilan ifodalanadigan propilitlarning epidotli fatsiyasi asosan andezit va andezit-datsit tarkibli subvulkanik jinslarda, shuningdek, andezitli vulkanik formatsiyasi qatlamlarida rivojlangan.

Xl+Ab+Kar+Ser (\pm Mus-Spt-Kv) assotsiatsiyasi bilan ifodalanadigan propilitlarning xloritli fatsiyalari andezitli jinslar (C₂m) kesmasining asosiy qismida va datsitli hosilalarning (C₂m₂) bazal qatlamlarida kuzatiladi.

Kar+Ab+Ser (\pm Mus-Gs) assotsiatsiyasining metasomatitlari bilan ifodalanadigan propilitlarning karbonatli fatsiyalari asosan datsitli hosilalarning yuqori qismlarida rivojlangan datsit va andezi-datsit tarkibli qatlamlashmagan botitli kristalloplastik jinslar bilan ifodalanadi.

Mintaqaviy propilitlar fonida lokal rivojlanishga ega boʻlgan metasomatitlar ajralib turadi: ular vulqonlarda yorilish kuchaygan zonalarining karbonat-xlorit-gidroslyudali metasomatitlari, kvars-albitli va solfator argilizitli (ikkilamchi kvarsitlar) *maʼdanli metasomatitlari guruhidir*.

Maʼdan bilan birga hosil boʻladigan metasomatitlar. Gidrotermal maʼdan hosil boʻlish jarayonlari bilan bogʻliq boʻlgan metasomatitlar asosan, yer yoriqlari zonalarini va ularning tarmoqlari hisoblangan darzliklar bilan nazorat qilinadigan togʻ jinslarida rivojlangan.

Karbonat-xlorit-slyudali metasomatitlar vulqonogen jinslardagi burdalanish zonalarini bilan nazoratlanadi va qatlamli hosilalarda o'tkazuvchan gorizontlar morfologiyasini takrorlaydi, shuningdek turli tog' jinslarining kontaktlari oraliqlarida rivojlanadi.

Ikkilamchi kvarsitlar noto'g'ri ochilmalar hosil qiladi va xlorit-gidroslyudali metasomatitlar zonasi orqali mintaqaviy propilitlar bilan almashiladi, ular notekis albit-xlorit-slyudali (biotit) assotsiatsiyasi, pirit va foydali ma'dan komponentlari bilan tarqoq minerallashuvni hosil qiluvchi jadal boyishi bilan tavsiflanadi. *Kvars-albitli* ma'dandor metasomatitlar vulqonogen qoplamada hosil bo'lib, u yerda tektonik yoriqlar bo'ylab kichik qalinlikdagi (4-10 m gacha) zonalar hosil qiladi.

Shimoliy-G'arbiy uchastkasiga yaqin maydonlardagi ma'dan oldi metasomatitlarining (kvars-kaliy dala shpat-muskovitli) mutlaq yoshi kaliy-argon usulida aniqlanganda xlorit bo'yicha 302 ± 4 mln yil, 1-sonli ma'dan tanasidagi seritsit bo'yicha 289 ± 1 mln), 10-sonli ma'dan tanasidagi seritsit bo'yicha 238 ± 2 mln ekanligi aniqlangan (E.M.Golovin, 1981). Bu raqamlar hududdagi datsit-andezitli effuziv jinslar (296 ± 1 mln yil) va diabaz-granofirli felzit daykalari (246 ± 3 mln yil) shakllanish yoshiga mos keladi. Qizilolmasoy ma'danli maydonidagi ma'dan oldi metasomatitlarining yoshi V.N.Volkov bo'yicha 295 ± 16 mln yildan 310 ± 10 mln yil (K-Ar usuli) oralig'ida deb qayd etilgan.

To'rtinchi bob **“Qizilolmasoy ma'danli maydoni Shimoliy-G'arbiy uchastkasi metasomatitlarining moddiy tarkibi”**ga bag'ishlangan. Bunda ularning mineralogiyasi, ma'danli minerallari, oksidlanish zonasi minerallari, tog' jinslari hosil qiluvchi va metasomatik minerallar, metasomatit va ma'danlarning geokimyoviy xususiyatlari va oltin ma'danlashuvini qidiruv-bashoratlash majmualari kabi tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Qizilolmasoy ma'danli maydoni Shimoliy-G'arbiy uchastkasida tarqalgan metasomatik tog' jinslari mineral tarkibi turli xildir. Ularni batafsil o'rganish natijasida 50 ga yaqin minerallar aniqlandi – ularning asosiylari gipogen – jins hosil qiluvchi, ma'danli va gipergeren – ikkilamchi-oksidlanish zonasi bilan birga keladigan minerallardir.

Minerallar metasomatitlar tarkibida tarqalish miqdori bo'yicha keng tarqalgan, kam miqdorda bir tekis tarqalgan va aksessorlarga bo'linadi (2-jadval).

Keng tarqalgan jins hosil qiluvchi minerallar – kvars, albit, kaliyli dala shpati, kalsit, seritsit, xlorit; ma'danli minerallar – sof oltin, kumush, elektrum, argentit, kustelit, freybergit, arsenopirit, pirit; gipergeren minerallar – gyotit, limonit, skorodit, gil minerallari (kaolin) hisoblanadi.

Metasomatik tog' jinslarida kam miqdorda tarqalgan jins hosil qiluvchi minerallar – muskovit, temirli karbonatlar, epidot; ma'danli minerallar – galenit, sfalerit, xalkopirit, xira ma'danlar, pirrotin, sof qo'rg'oshin, pirargirit, agvilarit; ikkilamchi minerallar – xalkozin, tserussit, yarozit. Fe-Mn birikmasi bitta namunada (C3-96) aniqlandi va uning rentgenspektral tahlil (JEOL) bo'yicha kimyoviy tarkibi (%) quyidagicha: Si-0.68, Cr-0.21, Mn-11.76, Fe-78.84 va juda kam miqdorda (0,05 dan kam) S, Ti, V, Co, Ni, Cu, Zn.

Aksessor minerallardan – sirkon, monatsit, apatit, barit, granat, selestin, xromshpinel (alyuminoxromit), magnetit, rutil, leykoksenlar aniqlandi.

Shimoliy-Gʻarbiy uchastkaning maʼdanlari va maʼdan atrofidagi metasomatitlarining mineral tarkibi

Tarqalishi	Gipogen		Gipergen
	Togʻ jinslarini hosil qiluvchi	Maʼdanli	
Keng tarqalgan	kvars, plagioklaz, kaliyli dala shpati, kaltsit, seritsit, xlorit	sof oltin, kumush, elektrum, argentit, kustelit, freybergit, arsenopirit, pirit	gyotit, limonit, skorodit, gil minerallari (kaolinit)
Kam miqdorda bir tekis	biotit, muskovit, temirlashgan karbonat	galenit, sfalerit, xalkopirit, Pb-Sn-Sb birikmasi, Fe-Mn birikmasi, xira maʼdanlar, pirrotit, sof qoʻrgʻoshin, pirargirit, agvilarit	xalkozin, tserussit, yarozit, surik
Aksessor	sirkon, monatsit, apatit, barit, granat, selistin, xromshpinel (alyuminoxromit)	magnetit, rutil	leykoksen

